

JADIDLAR MAFKURASI VA ZAMONAVIY MILLIY O‘ZLIK

Qo'ldoshev Vohidjon Mirzoxidjon o'g'li

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti 1-kurs magistr talabasi

Toshkent viloyati Yangiyo'l shahar 2-son Politeknikumi tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada, Jadidchilik harakati va uning zamonaviy milliy o‘zlikni shakllantirishdagi o‘rni tahlil etilgan. Jadidchilik harakati 19-asr oxiri va 20-asr boshlarida O‘rta Osiyo, ayniqsa, Turkiston hududida ijtimoiy, siyosiy va madaniy yangilanishlarga yo‘l ochgan muhim harakat bo‘lib, u milliy uyg‘onish, ilm va ma‘rifatga e‘tibor qaratgan. Jadidlar xalqni o‘z madaniyati, tili va tarixiga bo‘lgan hurmatini oshirish, yangi ta‘lim tizimini yaratish va milliy birligini mustahkamlashga intilgan. Ularning g‘oyalari bugungi O‘zbekistonda ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatib, mustaqillik va milliy o‘zlikni saqlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Jadidlarning g‘oyalari milliy o‘zlik, milliy tilni qadrlash va jamiyatni yangilashga bo‘lgan intilishlarini aks ettiradi, bu esa zamonaviy O‘zbekistonda milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishda davom etmoqda.

Kalit so'zlar: Jadidchilik harakati, Milliy o‘zlik, Milliy uyg‘onish, Ta‘lim tizimi, Ilm va ma‘rifat, O‘rta Osiyo, Turkiston, Milliy qadriyatlar, O‘zbekistonda milliy yangilanish, Jadidlarning g‘oyalari, Madaniyat va til.

Jadidchilik harakati XIX-asrning oxiri va XX-asrning boshlarida O‘rta Osiyoda, ayniqsa, Turkiston hududida keng tarqalgan ijtimoiy, siyosiy va madaniy yangilanish harakati sifatida tarixiy ahamiyatga ega. Bu harakatning asosiy maqsadi xalqni ma‘rifat, ilm, va milliy uyg‘onish yo‘liga yo‘naltirish edi. Jadidlar, bir tomondan, O‘rta Osiyo jamiyatidagi qoloqlikni bartaraf etish uchun yangiliklarni ilgari surgan bo‘lsa, boshqa tomondan, milliy o‘zlikni saqlash va rivojlantirishni o‘zining asosiy vazifasi deb bildilar. Ular, ayniqsa, milliy o‘zlikni shakllantirishda, xalqning o‘z tarixiga, madaniyatiga, tili va urf-odatlariga bo‘lgan e‘tiborini kuchaytirishga harakat qilganlar.

Ma‘rifatning lug‘oviy ma‘nosi bilishi, tanish bilim demakdir. Boshqacha aytganda ma‘rifat bilmoq, kishilarning ong-bilimini, madaniyatni oshirishga qaratilgan ta‘lim tarbiya jarayonlaridir. Ma‘rifat so‘zining ko‘plikdagi ma‘nosi maorifdir. Ma‘rifat atama sifatida tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar, ma‘lumotlar majmuasini bildiradi. Ma‘rifatli degani-bilimni, muayyan sohada ma‘lumoti bor demakdir. Ma‘rifatni hayotga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi. Demak ma‘rifat – bilim va madaniyatning qo‘shma mazmuni bo‘lib, maorif esa ana shu mazmunni yoyish quroli, vositasidir. Ma‘rifat asosan bilim maskanlarida tarqatiladi.

Ma‘rifat tushunchasi maorif tushunchasidan keng bo‘lib, bilim va madaniyatni yoyish va yuksaltirishning hamma turlari, shakllari va sohalarini o‘z ichiga oladi.

Jamiyatda ma‘rifat, ya‘ni bilim ma‘rifatparvarlar orqali yoyiladi. Ma‘rifatparvarma‘rifat uchun kurashuvchi ilm, bilim chirog‘ini yoquvchi, ma‘rifat xomiysi va tarafdori demakdir. Insoniyatning bir jamiyatdan ikkinchi jamiyatga, bir tarixiy davrdan

ikkinchi bir tarixiy davrga o‘tishi ma’rifatparvarlikdan boshlanadi. Zamonning etuk, ongli, oqqorani tanigan, fidoiy, elim, yurtim deb yashovchi, uzoqni ko‘zlovchi ma’naviyatli kishilari ma’rifatparvarlik bilan shug‘ullanadilar. Ma’rifatparvarlar odamda davr uchun, jamiyatning, mamlakatning, xalqning buguni va kelajagi uchun muhim g‘oyalarni ilgari suradilar, shu g‘oyalarni amalga oshirish uchun kurash olib boradilar. Ma’rifat ma’naviy qaramlikni, qo‘rquvni bartaraf etadi. Insonga beqiyos ilohiy qudrat, misilsiz salohiyat baxsh etadi. Shuning uchun ozodlik uchun kurashchilar mamlakat, millat ozodligini xalqning ma’rifiy uyg‘oqligida deb biladilar va ma’rifat uchun kurashadilar. Turkiston ma’rifatchiligi maktabi boy o‘tmish va u‘lkan merosga ega. Maxmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdulqodir Shukuriy, Ashulli Zoxidiy, Saidrasul Saidaziziy, Ishoqxon Ibrat va Axmad Donishlar XIX asr oxirlarida faoliyat boshlab, mamlakatni, xalqni milliy zulm va qoloqlikdan xolos etishning yagona yo‘li ma’rifatda deb bildilar. Bu fidoiy zodlar mustabid tuzum va jaholatga, ma’naviy qullik va zulmzo‘ravonlikka qarshi bor kuchlari bilan kurash olib bordilar. Bu ma’rifatparvar bobolarimiz dunyo kezib, jahon xalqlarining ilmu-ma’rifati, madaniyati bilan tanishib, mustamlaka o‘lkani, uning kishanlarini ilm chirog‘i orqali parchalamoq, ozodlik sari boshlamoq mumkin ekanligini chuqur his etdilar. Shu sababli ham eng avvalo yurtimizda maktab-maorif ishlarini rivojlanishida ham nazariy ham amaliy jihatdan azmu-shijoat namunasini ko‘rsatdilar. Ko‘rinadiki, jadidchilik, ma’rifatchilik ham millatni ma’rifatli qilish, ma’naviyatni yuksaltirish maqsadlarida yuzaga kelgan buyuk tarixiy harakatdir.

Jadidlar mafkurasi: asosiy tamoyillar

Jadidlar mafkurasi bir necha asosiy tamoyillarga asoslanadi:

- Ilm va ma’rifatga e’tibor – Jadidlar xalqning ilgari ta’lim olishdagi cheklovlarini bartaraf etish va yangi ta’lim tizimini yaratish zarurligini ta’kidlashgan. Ular o‘zgarishlar orqali millatni ilm-fan va madaniyat sohasida rivojlantirishni maqsad qilganlar.

- Milliy uyg‘onish – Jadidlar milliy uyg‘onishni, xalqni o‘z o‘ziga ishonch hosil qilishini, o‘z tilini, madaniyatini va tarixini qadrlashini rag‘batlantirdilar. Ular uchun milliy o‘zlikni anglash va saqlash muhim vazifalardan biri edi.

- Islohot va yangilanish – Jadidlar jamiyatda islohotlarni amalga oshirish, eski tarqatilgan qoloqlik va cheklovlarni bartaraf etish zarurligini ta’kidlashgan. Ular yangi pedagogik va ijtimoiy tarmoqlarni yaratishni maqsad qilganlar.

- Turkiy xalqlarning birligi – Jadidchilik harakati, ayniqsa, turk xalqlarining birligini ta’minlashni, ularni birlashtirishni maqsad qilgan. Bu mafkura, turk millatining kelajagini ko‘rgan va unga ko‘maklashishni istagan yoshlarning g‘oyalaridan iborat edi.

Jadidchilikning asosida “Jadid” so‘zi yotadi. Jadidning ma’nosi “yangi demakdir, u shunchaki “yangi” yo bo‘lmasa “yangilik tarafdori” degani emas. Balki “yangi tafakkur”, “yangi inson”, “yangi avlod” singari keng ma’nolarni o‘zida mujassam etgan.

Jadidchilikning mohiyatini Millat va Vatanni anglashdan ular manfaati uchun ku‘rashgacha bo‘lgan qizg‘in va hayojonli jarayon tashkil qiladi. Bu harakat millatni ham tarbiyalab bordi. Jadidlarimiz millatning yashamog‘i, taraqqiy topmog‘i uchun birinchi

navbatda, ozod, mustaqil bo‘lmog‘i lozimligini anglab yetadilar va tinch xalqni uyg‘otishiga alohida e‘tibor beradilar.

“Jadid” atamasi Turkiya turklarida ilk marta Sulton “Salim hukmronligi (1739-1802) davrida paydo bo‘ldi. Avstriyaga elchi qilib yuborilgan Abubakr Ratib afandi shohga yozgan bildiruvlarida u yerda ko‘rgan idora tizimini “nizomi jadid” deb tushintiradi. 1789 yilgi Frantsuz inqilobidan keyin qurilgan yangi tizimni esa “Fransiya nizomi jadidi” deyila boshlandi. Shu yillari “nizomi jadid”-tor ma’noda ha’rbiy tizimni evropalashtirishni, keng ma’noda ilm-fan, maorif, sanoat va qishloq xo‘jaligini zamonaviylashtirishni ko‘zda tutadi. Jadid va qadim iborasi yaqinda maydonga kelgan bo‘lsada, u mohiyatdan eskilik va yangilik, asrlarda va turg‘unlik o‘rtasidagi, eski kurashdir. “Yunon qadimchi faylasuflari miloddan avvalgi IV asrda Suqrotni Jadidchilik qabohati bilan ayblab, qatl ettirdilar”, -deb yozadi. Ismoil Gaspiriskiy “QadimchilikJadidchilik” (“tarjimon”, 1909 yil 19-son) maqolasida. Shundan hozirgacha, masalan, hatto zamonamizning eng madaniy, eng mutafakkir insonlari bo‘lgan inglizlar orasida ham qadimchilar g‘oyat ko‘pdir”, -deb davom etadi muallif va ularning tepasida hatto dunyoga mashhur olimlar, siyosatchilar, iqtisodiyotchilar turganini aytadi.

“Rossiya jadidchiligi”, “Buxoro jadidchiligi”, “Turkmaniston jadidchiligi” degan atamalarni uchratamiz. Bizningcha, harakat umumiy, ko‘rinishlar aniq bo‘lganligi uchun farqli, mohiyat bitta yangilanish. Bu turli joyda turlicha namoyon bo‘ldi. Masalan, Turkiyada 1839 yildagi mashhur Mustafo Rashiy Posho tomonidan yozilgan, Gulxoni xatti Humoyun” nomi bilan qirib, “Tanzimotni” boshlab bergan davr ham, bizcha, yangilanishdir - jadidchilikdir. To‘g‘ri, u asosan, g‘arblashtirishni tamal qilib olgan edi.

Shuning uchun ham ko‘p o‘tmay, bunga qarama-qarshi ravishda “turkchilik”, “usmonchilik”, “islomchilik”, “turonchilik” kabi milliy g‘oyalar o‘rtaga tashlaydi. Evropalashish bizda ham jadidchilikning muhim xususiyatlaridan biri bo‘lgan. Chor hukumati bundan mahalliy halqni ruslashtirish yo‘lida foydalandi ham. Lekin mezonmahalliy halqning o‘z dini va e‘tiqodini dahlsiz qoldirish. Ovropa ilm-fanini shularning muhofazasiga xizmat qildirish uchun kurash ketdi. Turkchilik, islomchilik, mahalliy o‘zbekchilik kabilarning bu erda ham maydonga kelishi bejiz emas. Aslida bizning jadidlarda fikr va g‘oya qorishiqqligi juda kuchli. Mana, masalan, yangi o‘zbek adabiyotining shakllanishi boshida turgan Muqimiy, Furqatlarni oling. Ular 30-yillarda jadid adabiyoti vakillari sifatida to‘g‘ri talqin qilingan. Muqimiy o‘z hajviy asarlarida savdo va sanoatning, ya’ni kapitalistik turmush tarzining milliy ahloqimizni buzayotganini tanqid qiladi. Furqat esa, uning hayotimizga kirib kelayotganini madh etadi. Biri tasdiq, ikkinchisi inkor yo‘lidan boradi. Yoki Dukchi Eshonni oling. U kuch, zo‘rlik bilan mustaqillikka erishish tarafdori, u ham jadid: din islohotchisi, siyosiy kurashchi, juda ko‘p jadidlarimiz uni rad etdilar. Bir qator jadidlarimiz ongli suratda sovetlar bilan hamkorlik qildilar, kommunist bo‘ldilar. Bu bilan ham hisoblashmoq kerak.

Bu hol, ayniqsa, mustaqillik uchun olib borilgan kurashda yaqqol ko‘rindi. Bu borada 3 yo‘lni kuzatish mumkin:

1. Rossiyaga tobelikdan zo’rlik bilan qutulish, kuch bilan istiqlool olish (Dukchi Eshon qo’zg’oloni, 1916 yil mardikorlik harakati, bosmachilik).

2. Murosa yo’li. Ruslar yordamida ma’rifatga erishish. Ma’rifat masalasida haququq olish, milliy xususiyatlarni tiklash (I. Gasriali, M. Behbudiy).

3. Hamkorlik yo’li. Chor ma’murlari, so’ng esa Sho’ro hukumati bilan birga ularning dasturlarida qatnashish va imkon bo’lishi bilan mustaqillikni qo’lga kiritish.

Buning uchun ma’lum tayyorgarlik ko’rib borish (Munavvarqori, Hamza, Avloniy).

Jadidlarning poydevori, tamal toshi usuli jadid maktabi edi. Bu tabiiy, hamonki maqsad jamiyatni yangilamoq ekan, uni yangi avlodgina qilishi mumkin edi. Yangi avlodni esa etishtirmoq lozim. Eski an’anaviy usulda bu ishni amalga oshirish qiyin. Chunki zamon o’zgargan. U tezkorlikni talab qiladi. Ikkinchidan, bugungi o’quvchi tarix, jug’rofiya, iqtisod, fizika, kimyo, matematika kabi zamoniviy fanlarni bilishi kerak.

So’ngi uch-to’rt asr dunyo taqdirini boshqa o’zanga solib yubordi. Evropani oldinga olib chiqdi. Endi Evropa ilm-fanini egallamasdan dunyo bilan barobar yashab bo’lmaydi.

Bu ilm-fanni o’zlashtirmoq uchun Evropa tillarini bilmoq kerak. Ayni paytda o’zlikni ham saqlamoq lozim. Din-diyonat ham zarur. Xullas, yashamoq uchun uchala jihatni ham ushlamoq kerak bo’ladi. Ushlaganda ham hech birini suiste’mol qilmasdan. Aks holda muvozanat buziladi. Muvozanat buzilishi esa, yomon oqibatlariga olib keladi.

Masalan, yolg’izgina din ushlansa, dunyo qo’ldan ketadi. Faqat o’zlik, millat desak, yana dunyodan ajralib qolamiz. Birovning biz bilan ishi bo’lmaydi. Evropa talashsak, o’zlik yo’qoladi. Bu ham fojia.

Bugun biz yuzma-yuz bo’lib turgan milliy g’oya, milliy mafkura masalalari bundan yuz yil oldin jadidlarimiz tomonidan ham kun tartibiga qo’yilgan va qizg’in muhokama qilingan edi.

Avvalo, “Milliy” va “milliylik” haqida. Ma’lum bo’lishicha, millat tushunchasi ilk bor qadim yunon faylasufi bundan salkam ikki yarim ming yil muqaddam yashagan, Demokrit tomonidan qo’llanilgan ekan. U bu tushunchani “har bir mamlakaning yagona sohibi” deb tushuntiradi. Din va irq masalasi, millat va mazhab masalasi turkiy xalqlarda hech bir zamonda chetga surib qo’yilgan emas. Aksincha, hamisha diqqat-e’tiborda kelgan. Buyuk Navoiy zamondoshlarini ta’riflar ekan, “shams ul-millat”, “zayn-ulmillat”, “nur ul-millat” sifatlarini qo’llaydi.

Bir millatning – quvvat va matonati uning saodati va farog’ati ahlining oz-ko’pligi bilan emas, a’zolaridagi madaniyat va taraqqiyotga omil hayotiy xususiyatlarining darajasi bilan o’lchanadi. Ilmu-hunar g’ayrat va mehnat bilan ko’lga kiradi. G’ayrat va mehnat esa ilmu hunar tufayli samara beradi. Bular o’zaro bog’liq tushunchalardir. Qavmining ko’pchiligi jisman sog’ bo’lib, ilmu hunardan bebaxra qolishi va hayoti parishon bo’lib, o’zini himoya qilmoqdan ojiz holda tushishi mumkin. Ilm-ma’rifatda quvvatli Evropa millatlarining sog’lom Afrikani asoratga olishlari bejiz emas.

Xo’sh, buning oldini olish uchun nima qilish kerak?

Ma’rifatga ehtiyot, ilm-fanni egallash g’oyasi millatning ko’pchiligi tomonidan anglanish kerak. Darhaqiqat, jadidlarimiz olib borgan barcha ishlar matbuotning yo’lga-

qo‘yilishi, “usuli jadid” maktabi nazariyasi va amaliyoti, teatrchilik, hamma-hammasi shunga xizmat qildi.

Umumlashtirib aytadigan bo‘lsak Jadidchilar umummilliy ma‘rifatni ko‘tarish, milliy ongini rivojlantirish, milliy birlikka erishish, jahon madaniyatini egillash kabi g‘oyalari bilan milliy ma‘naviyatimiz rivojiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shdilar.

Bugun hayotimizga tatbiq qilinayotgan milliy istiqlol mafkurasi –“Xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma‘naviyati, an‘ana va udumlari, ulug‘ bobokolonlarimizning o‘lmas merosidan oziqlanadi”. Jadidchilar g‘oyalari ana shu merosimizning o‘zviy qismi sifatida milliy ma‘naviyatimiz rivojlanishida muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda

FOYDALANILGAN A‘DABIYOTLAR:

1. Karimov I.A.. Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch. T.: Ma‘naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq millatini-millat qilishga xizmat etsin. Asarlar, 7-tom, T.: O‘zbekiston, 1999.
3. Aliev A. Ma‘naviyat, qadriyat, badiiyat. T.: Akademiya, 2000.
4. Sharifxo‘jaev M., Davronov Z. Ma‘naviyat asoslari. T.: 2005.
5. Otamurodov va boshqalar. “Ma‘naviyat asoslari” T.: “Meros”, 2002.
6. N.Xo‘jamurodov. Ma‘naviy qadriyatlar va milliy o‘zlikni anglash, T., “Fan”, 1991